O'ZBEKISTON SSSR NING TASHKIL TOPISHIDA JADIDLARNING O'RNI

https://doi.org/10.5281/zenodo.6599889

Komiljonova Nozima Avazbek qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Tarix fakulteti Tarix o'qitish metodikasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Anotatsiya: *Maqolada 1924-yilgi milliy chegaralanishga sabab bòlgan omillar. Chegaralanish bolsheviklar boshchiligidagi Sovet Rossiyasining rejasi edimi , jadidlarning maxsus tuzgan rejalari natijasi edimi yoki bu murakkab siyosiy jarayonlarda Turkiston òlkasi bòlinib ketgan edimi kabi masalalarni turli manbaalar asosida aniqlashtirishga harakat qilinadi .*

Kalit sòzlar: *gipoteza ,republika , jadidizm , bosmachilik , istiqlolchilik , modernizatsiya, imperiya, taraqqiyparvarla ,sart , Turkiston musulmonlari.*

O'zbekiston SSSR tashkil topishi tog'risida tarixchilarimiz tominidan bir qancha gipotezalar mavjud. Eng keng tarqalgan va jozibali eshitiladigan qarashlardan biri bolsheviklar boshchiligidagi SSSR ning Markaziy Osiyoni "bo'lib tashla va hukmronlik qil" shiori ostida majburan respublikalarga bo'lishi oqibatida tashkil topgan qarash hisoblanadi. Bu fikr qanchalik tog'ri bo'lmasin yoki jozibali eshitilmasin lekin vaziyatni boshqa tomonlarini ham e'tibordan qochirmaslik talab etiladi.O'zbekiston SSSR tashkil topishi hududiy chegaralanishi albatta bir kunda amalga oshgan hodisa emas bunday vaziyat yetilishi uchun sabab bo'lgan omillar bo'ladi. XX asr boshlarida esa Markaziy Osiyo hududini murakkab siyosiy jarayonlar qamrab olgandi. Xususan, mintaqadagi vaziyatga tub burilish yasagan 1917-yilgi fevral inqilobi bu inqilobga bunday tarif berishdan maqsad e'tiborimizdagi jadidizm harakati o'zining yangi siyosiy qarashlarini boshladi va jamiyatga targ'ib qilishga kirishdi , mintaqani yana bir yirik "bosmachilik" harakati qamrab oldi. Bu harakatning yo'nalishi , maqsadlari ham murakkab edi. Bizning hududda keyinchalik bu harakat "istiqlolchilik" harakati deb keng targ'ib qilindi. AQSH ning Carleton College professori, tarixchi olim Adib Xolid "Tarixchilarning aksari bosmachilikni sovet hokimiyatiga qarshi milliy istiqlol yoki qarshilik harakati deb baholashni xush ko'radi. Bosmachilik ajnabiylar hokimiyati o'rnatilishiga qarshi kurashgan milliy istiqlol harakatining bir shakli sifatida qarash qanchalik jozibador bo'lmasin, bu ixtilofni asl dinamikasi ancha murakkabroq edi. Bosmachilarning barcha xohish-istagi faqat va faqat mahalliy tusda bo'lib , yer va resurslar, urf-odat va hokimlik munosabatlarining himoyasiga

qaratilgandi. Urf bo'lgan hayot tarziga shahardan, zamonaviy davlatdan va modernizatsiyani amalga oshirayotgan elitadan kelayotgan innovatsiyalatr rahna solayotgan edi. Imperiyaning qulashi ellik yil davomida rus hukmronligi keltirgan barcha narsani xushlamaydigan, ularga ich-ichidan qarshi mahalliy birdamlik va hokimlik shakllarini takroran yuzaga qalqitdi"[1]



deb yozadi. 1-rasm. Abdulla Avloniy

Bu davrdagi siyosiy vaziyat murakkabligi shunda ediki qo'boshilarning nufuzi, maqsad va vazifalari turlicha edi. Endi biz asosiy masala bo'lgan O'zbekiston SSSR tashkil topishida muhim ro'l o'ynagan jadidchilik harakatining siyosiy maydonga kirib kelib alohida respublika bo'lishimiz uchun tamal toshini qo'yishdagi o'rniga to'htalamiz. XIX asr ikkinchi yarmida o'zlarini "taraqqiyparvarlar" yoki "ziyolilar" deb atagan harakat vujudga keldi. Bu harakatning maqsadi xalqning maorif tizimiga yangiliklar olib kirish va madaniyatni oshirish edi. Albatta bu yo'lda ular yangi usul maktablarini qurdi ,nashriyotlar ochib gazeta , jurnallar nashr qildi, teatr truppalarini tuzib ular uchun dramalar yozdilar. Inqilob davrlarida , murakkab siyosiy jarayonlar ichida bunday faoliyat yuritish juda katta mashaqqat va qiyinchilik tug'dirgan. Xususan Abdulla Avloniyni nashriyot ochib gazeta chiqarishda qiyinchilik va taqiblarga uchragani haqida o'z tarjimai xolida shunday deb yozadi "1907-yilda men o'z muharrirligim bilan hamda temiryo'l ishchilarining sotsial-demokratik firqasining aloqa va yordami bilan "Shuhrat" ismidagi gazetni Sapyorniy ko'chada chiqardim. Temir yo'l ishchilarining komitetlari tomonidan "Rafiq Sobirov" ismli qozonli tatar orqadoshimiz mening gazetimg'a kelib, yozuv jihatlarindan yordamlashur edi. Shu vaqtda O'runburg'da chiqadurg'on, fofirus qog'azig'a bosiladurgon "Soldat" ismli ruscha maxfiy gazetani va mundan boshqa ruscha yozilmish turli froqlamatsiyalarni "Rafiq Sobirov" bilan

[1] "O'zbekiston tavalludi" Adib Xolid Toshkent. "Akademnashr"-2022. B-88

ikkimiz turli kishilarning vositasi bilan tarqatur edik. Bu ruscha froqlamatsiyalarg'a qanoat qilmay , musulmoncha tipog'raf bilan maxfiy suratda froqlamatsiya bosub shahar va qishloqlarga ham tarqata boshladuk. Bu froqlamatsiyalarning yozuvchisi- O'tab kotib, Eski shaharg'a tarqatuvchi- Eshonxo'ja, Yangi shaharg'a- men , qishloqlarg'a – Umarqul Anorqul o'g'li edi. Bizning harakatimizni eski hukumat sezg'anligi bilindi. Mening uyimda yo'lg'on passport bilan turg'on " Sobirov" ni qochirdik. Ul O'runburg'ga borib, qo'lga tushib qoldi. Sud o'limga hukm qilib, Toshkentdagi qo'mitani ochib bersang , o'lim jazosin o'zgartiramiz, deb shart qo'ydilar. Ul o'limdan qo'rqib, tamom qilg'on ishlarin, "Shuhrat" gazetasin shul qo'mitaning yordami bilan chiqg'anlig'in va inqilob qo'mita a'zolarini tutib berdi.10-no'merinda "Shuhrat" gazetasin tamom nimarsalarin butun idoradagi xat va qog'azlar bilan musodara qilib, "черезвичайни охран" kuchi bilan chiqarmasqa mendan imzo olib to'htatdi, yiqilg'on kurashga to'ymas degandek, 1908-yilda yozuvchilarimizdan , idoramizda xizmat qiluvchi Ahmadjon Bektemirov nomiga "Osiyo" ismli gazetga ruxsat olub, idorani o'z uyimga ko'chirib yana chiqara boshladim. 6-no'merida hukumat jonivorlari kelib, buni ham musodara qilib, berkitib ketdi. 1917-yilda "Turon" nomli gazet chiqara boshladim. Gazetani 2-nomerinda mullalarga qarshi chiqarilgan Mirmuhsin maqolasi sababli "Shoroi islomiya" tomonidan gazetimg'a boyqot e'lon qildilar. 3- nomerinda mullalarga qarshi avvalgidan qattiqroq maqola bosib yubordim. Bundan so'ng o'z ismimg'a gazeta chiqarmasliqg'a mendan imzo olib , gazetani bog'ladilar"[2]. Jadidlarning o'ziga xos jihati yana shunda ediki ular modernizatsiya va innovatsiyalar tarafdori edilar. Ular umuman olganda eskicha turmush tarzidan voz kechib rivojlanayotgan davlatlardagi singari tehnologiyalardan foydalanib taraqqiyotga erishishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygandi. Millatga ma'rifat ulashish, uni modernizatsiyalash va ichki muxolifat ustidan g'alabaga erishish kerak edi. Bu esa to'laqonli ong inqilobini aholi orasida yangicha fikrlash va dunyoqarashni taqozo etardi. Eski madaniyat vayronalaridan yangi madaniyat yaratilishi lozim edi. Jadidlarning jamiyatga bo'lgan tanqidini sovet tuzumini tanqid qilish bilan adashtirishadi. XX asr 20-yillari adabiy arboblarini milliy qahramonga, o'zbek millatining ma'naviy va madaniy yetakchisiga aylantirishga moyillik kuzatilyapti. Bunday yondashuv ham ushbu arboblarning urf-odatga qarshi isyonini, o'zaro ixtiloflarini jiddiy o'rganishga xalal beradi. G'arb tadqiqotchilari ham, o'z navbatida, bu davr adabiyotini sovet hukmronligiga qarshi isyon vositasi, adabiyotni esa Ezop tilida ifodalangan tanqid va e'tiroz sifatida o'qishga odatlanib qolgan.[3] Bu esa matnning asl ma'no-mazmuni nima ekanligini anglamay qolishga, davrning tarang muhitini va

[2]Абдулла Авлоний. Таржимаи холим Танланган асарлар 2 томлик. –Тошкент, 2006- Т.2. -.288
[3] "O'zbekiston tavalludi" Adib Xolid Toshkent. "Akademnashr"-2022. B-20

O’rta Osiyo jamiyati ichida mavjud jiddiy ixtiloflarni tushunmaslikka olib keladi. Yani jadidlarning yozgan tanqidiy maqolalari o’sha davr jamiyati uchun qaratilgandi.Bunday maqolalarda jadidlar millat va turkiylik

2-rasm Sherali Lapin (Serali Lapin)

g’oyalariga urg’u bera boshladi. Masalan, ajnabiylar O’rta Osiyo o’troq aholisiga ishlatadigan “sart” istilohini jadidlar tomonidan inkor etilishiga , uning o’rniga “O’rta Osiyo xalqining munosib nomi” bilan chaqirilishini talab qilinishiga olib keldi. “Turkiston musulmonlari” haqida gap ketganda jadidlar mintaqadagi faqatgina o’troq aholini nazarda tutardi. O’troq va ko’chmanchilar o’rtasidagi tafovut O’rta Osiyoning muhim xususiyati bo’lgan bir paytda Movarounnahr shaharlaridan chiqqan jadidlarning ko’chmanchi jamiyatlar bilan hech qanday aloqasi, rishtasi bo’lmagan. Biz milliy respublikalar tashkil topgunicha bo’lgan vaqt davomida O’rta Osiyodagi umumiy siyosiy vaziyatni yani qirg’iz , qozoq , turkman ziyolilarining bu vaziyatga munosabatini ham ko’rib o’tishimiz kerak. Dashti Qipchoqdagi qozoq elitasi XIX asr o’rtasidanoq farzandlarini rus maktablariga bera boshlagan. Turkistondagi qozoq zodagonlari ham bu amaliyotni davom ettirdi, natijada rus ta’limini olgan mahalliy aholi vakillari orasida Sirdaryo va Yettisuv qozoqlari ko’pchilikni tashkil etardi. E’tiborlisi, Turkiston qozoq elitalari ko’proq Omsk, Troisk va Orenburgdagi qozoq matbuotida faol edi. 1917-yil solnomasida sezilarli iz qoldirgan huquqshunos va tarjimon Sherali Lapin Toshkentning rus va Dashtiq Qipchoq qozoq matbuotida chiqishlar qilgan, lekin o’zbek tilidagi Turkiston matbuotida hech qanday matbuot chop etmagan. Musulmon institutlari

islohoti qozoq ziyolilarini uncha qiziqtirmagan, ular ko'proq slavyan rus muhojirlari muamosi, ko'chmanchilar yo'qotayotgan yerlar haqida

Sanjar Asfandiyor

rafiqasi Robig'a

qayg'urishgan. Qozoq ziyolilarining o'z dunyosi bahs-munozarasi, alohida orzu-havasi bor edi. Turkman elitalari ham ancha farqli rus davlati bilan o'zaro kelishuvga erishgan edi. Shuningdek turkman jamiyatida kitobxonlik va shaharlashish an'anasi deyarli rivojlanmagan. Bemalol aytish mumkinki "Turkiston musulmoni" dagi "musulmon" faqatgina O'rta Osiyo o'troq aholisiga taalluqli bo'lgan, ko'chmanchilar bu jumla doirasiga kiritilmagan. Shu bois Turkiston aholisining azaliy birligini parchalab yuborgan sovet kirdikorlari haqidagi iddaolardan ehtiyot bo'lishimiz lozim. Turkiston tom ma'noda rus istilosining mahsuli edi va u yerda hech qachon birlik hukm surmagan[4].Ko'plab jadidchilar haj safariga chiqib Hindiston, Afg'oniston, Eron , Misrda bo'ldilar. Eng muhim manzil Istanbul edi. Musulmon islohotchilari uchun Usmonlilar imperiyasining jozibasi hamisha haqorat tarzida qo'llanilgan "panislomizm" , "panturkizm" istilohi shama qilgandek allaqanday diniy yoki etnik birdamlikda emas, bilaks imperalizm davrida davlat mustaqilligini saqlab qolgan yagona kuchli musulmon davlati bo'lganligidadur. Yuqorida aytganimizdek "Bo'lib tashla va hukmronlik qil" argumenti ommaga mo'ljallangan Markaziy Osiyo haqidagi ishlarda keng tarqalgan, lekin bunday qarash maxsus ilmiy adabiyotlarda ham uchraydi. Umumlashtirilgan xulosalar ta'bni buzadi. "Sovet musulmonlari o'rtasida siyosiy birdamlik ehtimoli "bo'lib tashla va hukmronlik qil" siyosati tomonidan ataylab yo'qqa chiqarildi" deb yozadi Malise Rutven. "Bugungi Markaziy Osiyo davlatlari o'zining hududiy tuzilishiga Stalin oldida qarzdordirlar. U panturkizm va panislomizm millatchiligi tahdidiga javoban Turkiston hududlarini 5 ta respublikaga bo'lib tashladi." Stalin o'zboshimchalik bilan chegarani chizib berdi va na jug'rofiy, na etnik asosga ega bo'lgan respublikalarni yaratdi deb hisoblaydi Ahmad Rashid

[4] "O'zbekiston tavalludi" Adib Xolid Toshkent. "Akademnashr"-2022 B-48

Technische Universität München

o’zining “Jihad: The Rise of Militant Islam in Central Asia” degan kitobida. Filipp Shishkin Rashidni qo’llab quvvatlaydi , u “sovet diktatori Iosif Stalin... etnik guruhlarni bo’lib tashlagan chegaralarni chizib , sovet hokimiyatiga har qanday jiddiy tahdidning oldini oldi. Agar siz Farg’ona vodiysining xaritasiga qarasangiz Yuragi kasal bemorning kardiogrammasiga xos zig-zag chiziqlarni ko’rasiz!” deydi. Lekin sovet etnograflari yoki kompartiyasi emas aynan mahalliy musulmon ziyolilari O’zbekiston va o’zbek millatining haqiqiy mualliflaridir.

Sherali Lapin rahbarligida 1900-yil Peterburgga yuborilgan Turkiston yoshlari

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. “O’zbekiston tavalludi” Adib Xolid Toshkent. “Akademnashr”-2022
2. Абдулла Авлоний Танланган асарлар 2 томлик. –Тошкент, 2006
3. Абдулла Авлонийм “ Маданият толкунлари” Танланган асарлар 2 томлик Тошкент, 2006
4. Тожибоев Рю“ Мустамлакачилик ва миллий матбуотимиз” 1997.
5. Холбоев .С Истиклолимиз сарчашмалари. Жадидчилик тарихий хакикат .Ишонч .1996 10-